



## PREZIDENT G'OYALARINING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Samadova Raximabegim Abdusaidovna

BuxDU Tarix va yuridik fakulteti

5-1 21 Islom tarixi va manbashunosligi yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8413213>

## ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-September 2023 yil

Ma'qullandi: 28-September 2023 yil

Nashr qilindi: 30-September 2023 yil

## KEY WORDS

O'zbekiston, mustaqillik, vatan, davlat, ijtimoiy, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, yuksak, renessans, ajdod, avlod, yoshlar, globallashuv, fan, ta'lim, milliy, o'zbek, Shavkat Mirziyoyev, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy

## ABSTRACT

*Maqolada yoshlarga oid davlat siyosati joriy yilda yoshlarimizga berilayotgan qator imkoniyat va imtiyozlar ayniqsa fan, ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zgarishlar, ma'naviyat, ma'rifat kitobxonlik, san'at madaniyat sohalarining zamonaviy ta'lim tarbiyadagi ahamiyati, yoshlarning glaballashuv davridagi innovasion qarashlari, milliy tariximizning ulkan renessans asoschilari asrlar davomida makon va zamonning buyuk shaxsi deya e'tirof etilgan ajdodlarimizning ijtimoiy qarashlari ma'nan yondoshilib ochib berilgan..*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ibratlidir. Aslida ham kelajakni ana yoshlar yaratadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev xalqqa qarata aytgan o'z murojatnomasida "Erkin fuqarolik ma'naviyatini, ozodshaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan atrofi, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'alarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir"<sup>1</sup>, - deb takidlagani bejiz emas albatta.

Ona Vatanimizda hozirgi globallashuv jarayonida yaratilib berilayotgan qator imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxslarni tarbiyalash eng asosiy vazifa sifatida qaralib kelinmoqda. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi. Bu dasturlarning nechog'lik ahamiyatga molikligini kattayu-kichik ta'limda, madaniyatda, oilada,

<sup>1</sup> .Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. "O'zbekiston" 2017 y.

san'atda, ilmda, sportda birdek shioriga aylantirgan "Yoshlarga oid davlat siyosati", joriy yilni "Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligi" yili deb e'lon qilinishi misolida ko'rishimiz mumkin.

Zotan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomalarida jamiyatimizda ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga to'xtalib, "Eng asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, erkin va demokratik jamiyatni shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish kabi dasturlarni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanlikni kuchaytirishdir"<sup>2</sup>, - deb ta'kidlagani e'tiborga molik hisoblanadi. Hozirgi davr jarayonida Axbarot almashinuvi shiddat ila yoshlar hayotiga qadam qo'yar ekan, ma'naviyat eng asosiy ozuqa hisoblanadi. Ta'lim-tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi ko'pchilikka ayon haqiqatdir. Milliy pedagogikamizning asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir!", - degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Biz shaxsan ta'lim-tarbiya jarayonida oiladan so'ng innovatsiyaning keyingi bosqichi Maktabgacha ta'lim muhiti deya e'tirof etar ekanmiz, maktabgacha yoshdagi bolaning ma'naviyatini, tafakkurini shakllantirish bu doimiy tizimlilik, uzviylikni, davomiylikni talab etadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda eng avvalo Prezidentimiz takidlaganidek tarixga yuzlanib, "qaysidir bir yosh kimning nasl-nasabi ekanligini bilishi, u ota-bobosidan o'rnak oladigan barkamol yetuk inson bo'lib voyaga yetishi yoxud tarbiya olishi eng asosiy poydevor maqsadimiz bo'lishi kerak"<sup>3</sup>, deb qayta-qayta aytgan so'zlari bugungi kunning to'la qonli haqiqati aslida. Darhaqiqat buyuk mutafakkir, davlat arbobi hazrat Alisher Navoiy merosidan foydalanishni davr taqozo qilmoqda. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Yukak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida alohida to'xtalib o'tgani alohida e'tiborga molik hisoblanadi. "O'zbek xalqi ana'naviy dunyosining shakllanganiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiydir bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo farxlanib so'z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy tariximizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'ni-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas shaxsdir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biror-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa.

"Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir"<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> "Xalq so'zi" 2016-yil

<sup>3</sup> Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. "O'zbekiston" 2017 y.

<sup>4</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.

Inson qalbining quvonch-qaysuni, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu-shuurimiz, yuragimizga Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz"<sup>5</sup>, - deb ta'riflagan edi. Ayni haqiqat shuki biz nafaqat Navoiy, balki ulug' mutafakkirlarning avlodimiz.

Har qanday mamlakatning taraqqiyoti faqat uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlari, intellektual qobiliyatlariga ham bog'liq. Erkin va faravon jamiyatimizning asosi ko'p jihatdan ana shu yoshlarimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga bog'liq.

Agar biz kechagi zamonlardagi innovatsiyani bugungi zamon ila taqqoslasak, har bir zamonning o'z yangiligi bor, faqat bu yangilik va innovatsiyalardan unumli foydalansak, kishi o'z-o'zidan xalq dardu tashvishlarini yengillatishga bel bog'laydi, fikrni-fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni - nodonlik va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlata oladi. Globallashuvni yetarli darajada tahlil qila olish va qo'llay olish . bu mamlakatda - odamiylik, diyonat va iymon - e'tiqodning kuchiga ishonch demak. Chunki zamon shunday keldi, ko'nglida shu ishonch g'olib bo'lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko'paysa, insoniy muammolar har qalay kamayib boradi, - deb o'ylayman.

Shu bugungi kunda oiladan, maktabgacha, o'rta maktabdan Oliy dargohgacha innovsiyalarni o'rganish va o'rganilgan yangiliklarni fan-ta'lim, texnika, iqtisod va shu kabi yo'nalishlarda to'g'ri shakllantirish dolzarb vazifalardan ekanligini unutmazlik lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. "O'zbekiston" 2017 y.
- 2.Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.
- 3."Xalq so'zi" 2016-yil...

<sup>5</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.